

**XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA QO'YILADIGAN
BAZI BIR XATOLAR VA ULARNING ANALIZLARI**

Raxmatova Dilnavoz Abdimuradovna

O'zDJTU nemis tili amaliy fanlar

kafedrasi Stajyor o'kituvchisi

Botirov Diyorbek Vohidjonovich

Toshkent davlat Transport universiteti Avtomobil yollari

muhandisligi fakulteti YMSH-7 guruhi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqlada xorijiy tillarni o'rgatishda qo'yiladigan bazi bir xatolar va ularning analizlari va bu boradagi ilmiy ,uslubiy yondashuvlar haqida keng ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy, grammatik, samaraliroq, muammoli, ingliz, fransuz, nemis.

Аннотация: В статье представлена обширная информация о некоторых ошибках в обучении иностранному языку и их анализе, а также научно-методических подходах в этом отношении.

Ключевые слова: иностранный, грамматика, более эффективный, проблемный, английский, французский, немецкий.

Abstract: The article provides extensive information about some mistakes in foreign language teaching and their analysis, as well as scientific and methodological approaches in this regard.

Key Words: foreign, grammar, more effective, problematic, English, French, German.

KIRISH:

Albatta har bir inson biror ishga qo'l urish orqali ma'lum maqsadga erishishni ko'zlaydi. Shu qatorda ingliz, fransuz, nemis yoki biror sharq tillarini o'rganishga kirishgan yangi til o'rganuvchilar ham mazkur tillarni o'rganish orqali ma'lum bir maqsadga, natijaga erishishni ko'zlaydi. Afsuski ba'zi til o'rganuvchilar shu qadamdayoq xatoga yo'l qo'yadilar va keyinchalik til o'rganish jarayonida bir qator qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Gap shundaki hozirgi kunda aksariyat xorijiy tillarni o'rganuvchi yoshlari mazkur tilni o'rganish orqali bir tomonlama natijaga erishishni ko'zlashadi, ya'ni ular yangi xorijiy til o'rganish orqali faqat kirish testlarida yaxshi natijaga erishish, o'zları o'rganayotgan til bo'yicha til bilish sertifikatini qo'lga kiritish yoki mazkur tilda shunchaki so'zlashuv ko'nikmasini shakllantirishni maqsad qilishadi. Bu esa o'rganilayotgan tilga yuzaki munosabatni shaklanishiga sabab bo'ladi. O'z o'rnila o'rganilayotgan tilga nisbatan bunday yuzaki munosabat ularning mazkur tilni, undagi

o'ziga xos ibora va murakkabliklarni to'liq anglab yetishlariga xalaqit beradi va oqibatda ular ushbu tilni o'rganishdan o'zlari kutganday muvaffaqiyatga erisha olishmaydi. Bu ularning xorijy tillarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ular «bu mening ona tilim emas, bu tilni to'liq bilishim shart emas» degan xulosaga kelishadi. Aslida esa til o'rganish jarayoniga nisbatan bunday qarash mutlaqo xato. Xorijy tillarni o'rganish va o'ganilayotgan tilda ravon gapira olish ushbu tilni o'rganishga jiddiy kirishishni talab etadi. Til o'rganishga yuzaki emas balki jiddiy yondashishgina ushbu tilni, undagi murakkabliklarni to'liq tushunishga va kelajakda ushbu tilda qiyinchiliklarsiz muloqot qilishga yo'l ochadi.

ASOSIY QISM:

Xoriliy tillarni endi o'rganishga kirishgan o'rganuvchi yoshlarning oldidagi muammoli vaziyatlardan yana biri bu ularning mazkur tilni o'zlashtirish va qo'llash davomida xato gapirib qo'yishdan qo'rqishlaridir. Albatta til o'rganish jarayonida xato qilishdan qochish til o'rganuvchilarda tilga nisbatan mas'uliyatli bo'lish ko'nikmasini shakllantiradi, biroq bu jarayon til o'rganishni sustlashishiga va o'rganuvchi o'quvchining bora-bora bu tilda gapirish ko'nikmasining to'liq rivojlantirishida qiyinchiliklarga uchrashiga olib kelishi mumkin. Odatda til o'rganuvchi o'rganayotgan tillarida suhbatlashish jarayonida grammatik me'yordarda xato qilishdan qochishga urinishi bilan chalg'ib gapirilayotgan fikrning mazmunini majhullashishiga sabab bo'ladi. Bu esa tinglovchining fikrni to'liq anglab yetolmasligiga olib keladi. Shuni unutmaslik kerakki har qanday yangi boshlangan ishda xato va kamchiliklar bo'lishi bu tabiiy hol. Yangi til o'rganuvchilarining nutqidagi talaffuz buzilishlari va grammatik xatoliklar doimiy o'z ustida ishlash va mazkur tilda gapirish amaliyotini oshirish orqali o'z yechimini topadi. Chet tillarini o'rganishga kirishayotgan yangi o'rganuvchilar yo'l qo'yadigan yana bir xatolardan biri bu o'rganuvchilarining o'qituvchi ko'magiga haddan ortiq bog'lanib qolishi va o'z ustida ishlashdan qochishlaridir. Albatta til o'rganish jarayonida o'qituvchining tushuntirish va yordamlariga tayanish optimal holat, ammo o'ranuvchilarining o'z ustida ishlashdan qochishi yohud o'z ustida kam ishlashi, mustaqil ishlash jarayonida yuzaga keladigan til o'rganish bilan bog'liq kichik murakkabliklarga yechim topishga urunmasliklari bora-bora o'rganuvchilarining til o'rganish ko'nikmalarining sekinlashishiga va kam natija berishiga olib keladi.

O'rganuvchi o'quvchilar undan foydalanishga majbur bo'lganlaridagina boshqa tilni yaxshi o'rganadilar. O'qituvchi o'quvchilarga o'ganilayotgan tilda muloqot qilishlarini talab qilishi shart. Ana shu holatdagina til o'rganishda o'sish, talaffuzda ravonlik kabi yutuqlarga erishish darajasi oshadi. Dars jarayonida qat'iyat bilan talab qilinsa va cheklovlar yo'lga qo'yilsagina chet tilini o'zlashtirish muvaffaqiyatli amalga oshadi.

Chet tili darslariga qatnashmaslik, o'qitishning o'ziga xos metodologiyasining yo'qligi, repetitorlarning doimiy o'zgarishi – bunday tezlikda siz ingliz tilini tez va

samarali o’rgana olmaysiz. Yana bir asosiy xatolaridan biri bu xato qilishdan qo’rqish. Har bir tilni o’rganayotganda xatolarga yo’l qo’yadi. Har bir o’rganuvchi xatolaridan xulosa chiqara olishni bilishi kerak. Har bir qilayotgan xato tajriba bo’lib hizmat qiladi

Insonlar bilan muloqot qilmaslik Aksariyat insonlar aksentni noto’g’ri qo’yishdan, grammatic xato qilishdan qo’rqib insonlar bilan suhbat qurmaydilar. Bu o’rganuvchini til o’rganishdagi katta xatosi hisoblanadi. Asosan til muloqot qilish uchun o’rganilinadi. O’qituvchiga qaram bo’lib qolish ham xato. O’z ustida mustaqil ishslash, muammolarni mustaqil hal qilish va izlanish har qanday fanni yaxshi o’zlashtirishga xizmat qiladi. Talaba har bir kichik muammo yuzasidan o’qituvchiga murojaat qilaverishi, o’quvchining qaramligidan dalolat beradi. Bu esa talabaning o’z ustida ishslash imkoniyatini kamaytiradi.

Mustaqil ravishda o’z ustida ishlamaslik. Darslardan so’ng mustaqil rravishdaaksent ustida ishslashni, insho, xatolar yozishni mashq qilib, yangi so’zlarni o’rganishga harakat qilishmaydi. Grammatic qoidalarga bog’lanib qolish, til bilan bog’liq to’siqlar kabi muammolar talabalar- ning til o’zlashtirishga bo’lgan qiziqishni so’ndirib, jiddiy yondashmaslikka sabab bo’ladi. Aslida muloqot tushunarli bo’lishi uchun tuzilgan jumlalar grammatic jihatdan to’g’ri bo’lishi shart emas degan g’oyani bir vaqtning o’zida qisman to’g’ri va qisman noto’g’ri.

Shuni unutmaslik kerakki xorijiy tilga doir ko’nikmalarni aynan bir shaxsning nutqiga tayanib qurib bo’lmaydi, chunki odatda o’qituvchilarning o’sha xorijiy tildagi nutqi o’sha xorijiy tilda so’zlashuvchi tub aholi nutqi bilan ancha farqqa ega bo’ladi. Bunday muammolarga duch kelmaslikning eng to’g’ri yo’llaridan biri bu o’sha tildagi kinolarni ko’rish va podkast va radio eshtirishlarni tinglashdir.

Xorijiy tillarni yangi o’rganuvchilarga bog’liq muammoli vaziyatlardan biri bu xorijiy tillarni o’rganishga mo’ljallangan o’quv dasturlarining haddan ortiq ko’pligi va yoshlarning odatda o’qitish dasturlarining o’ziga mosini tanlash va keyinchalik o’qitish dasturlariga ko’nikib ketolmaslikdir. Ba’zida xorijiy tillarni o’rganishda qaysi usul samaraliroqligini ko’ramiz- O’qituvchi bilan yuzma-yuz holda alohida o’rganish yoki guruhlarga birikkan holda? Degan savol til o’rganishga endi kirishgan yoshlar oldida paydo bo’ladi. Kuzatishlar shuni ko’rsatadiki xorijiy tillarni o’rganishga qaratilgan yuqoridagi ikki usul ham o’ziga xos ustunlik va kamchiliklarga ega. Misol uchun xorijiy tillarni guruhlarga birikkan holda o’rganish orqali xorijiy tilda gapirish ko’nikmasining tez shakllanishiga, darsda o’tilgan ma’lumotlarni o’zaro savoljavoblar orqali yanada mustahkamlab olishiga erishish mumkin. Biroq xorijiy tillarni guruhlarda o’rganish davomida ajratilgan vaqtning ba’zida barcha o’quvchilar bilan ham ishslashga yetmasligi, dars yuzasidan berilgan axborotlarning barchaga birday tushunarli bo’lmasligi kabi muammolarga duch kelishi ham mumkin.

Xorijiy tillarni o’qituvchi bilan yakka holda o’rganish jarayonida esa o’rganuvchi til yuzasidan o’zida paydo bo’layotgan barcha savollarga javob olish

imkoniyatiga ega bo'lishi, mavzuning nisbatan tushunarli bo'lishi va dars jarayonida ortiqcha narsalarga chalg'imasligi kabi qulayliklarga ega bo'ladi. Lekin til o'rganishning bu ushbu tilda gaplashish ko'nikmasining rivojlashiga to'sqinlik qiladi. Bu muammo borasida Toni Robins «Eng yaxshi usul va qoidalar ham movaffaqiyatning atiga 20 foizini tashkil etadi, qolgan 80 foizi inson psixologiyasiga bog'liqdir» deb takidlaydi. Shuni unutmaslik kerakki muvaffaqiyatning asosiy garovi bu tinimsiz mehnat va harakatdir. Til o'rganish jarayonida vujudga keldigan muammoli vaziyatlardan yana biri bu yangi til muhitiga moslasha olmaslik, o'sha tilni his qilishda qiynalishdir. Odatda bunday muammo ushbu tilda so'zlashuvchilarning yoki ushbu tilni biluvchilarning til o'rganuvchi atrofida yo'qligidir.

Bu muammo ortidan til o'rganuchi yangi o'gan so'zlar va ma'lumotlarini tezda yodidan chiqarib yuborishiga olib kelishi mumkin. Bu muammoni hal qilishning maqbul usuli bu o'rganilayotgan til muhitini o'rganuvchi tomonidan yaratilishidir. Bu borada til o'rganuvchi eng avvalo kuundalik hayotda eng ko'p foydalanadigan buyumlarning nomini eslab qolishga harakat qilishi va iloji bo'lsa bu buyyumlarni yangi o'ranilayotgan tildagi nomini ularning o'ziga yozib qo'yishi anchayin foydali. Bu usul xorijiy tildagi predmetlar nomini oson o'zlashtirilishi va xotirada uzoq saqlashiga yordamlashadi. Bundan tashqari xorijiy tildagi musiqalarni tinglash va ushbu musiqa matnini olgan holda musiqa eshtish davomida so'zlar talafuzini kuzatish eshtish va talafuz ko'nikmasini anchayin muvaffaqiyatli shaklanishiga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. T. Robins «Maqsadga qanday erishiladi» 2013. 3.Z.Po'latova. «Xorijiy tillarni o'rganishdagi muammolar». Maqola.
2. Sergeeva, E. S. (2021). Badiiy adabiyotda fazo toifasi. Iqtisodiyot va jamiyat, (1-2).
3. Sergeeva, E. S. (2020). L.Solovyovning “0 Xoja Nasreddin qissasi” va A.Volosning “PANJRUDGA QAYTISH” romanlaridagi madaniy makon obrazi. Iqtisodiyot va jamiyat, (11).
4. Sergeeva, E. S. (2020). Tushunish texnikasi badiiy matnni talqin qilish usullaridan biri sifatida. Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, (4).
5. Shayxislomov, N. (2021). O'QUVCHILARNING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA YOZMA ISHLARNING O'RNI. Scientific progress, 2(1).